

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

**Qo'lyozma huquqida
UDK:330.13(575.1)**

GANIYEV BAXTIYOR ZULFIQOR O'G'LI

**ISHCHI KUCHI TALABI VA TAKLIFI O'RTASIDAGI
MUVOZANATNI TA'MINLASHNING ASOSIY
YO'NALISHLARI**

08.00.01 – «Iqtisodiyot nazariyası»

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish
uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: i.f.n., dots B.E.Mamaraximov

TOSHKENT – 2024

MUNDARIJA

KIRISH.....		3
I-bob. ISHCHI KUCHI TALABI VA TAKLIFI O'RTASIDAGI MUVOZANATNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....		12
1.1. Muvozanatni ta'minlash bilan bog'liq nazariy qarashlar yuzasidan adabiyotlar tahlili.....		12
1.2. Shaklan va baholash ko'rsatkichlari jihatidan muvozanatni mohiyatan o'ragnish.....		19
1.3. "yashirin ishsizlik"ning muvozanatga erishishdagi muhimligi tadqiqi.....		30
1-bob bo'yicha xulosalar.....		37
II-bob. O'ZBEKISTON ISHCHI KUCHI BOZORIDA TALAB VA TAKLIF HAMDA MUVOZANATNING AMALDAGI HOLATI.....		39
2.1. O'zbekistonda ishchi kuchiga bo'lgan talabni oshirishda xususiy sektor imkoniyatlaridan foydalanish darajasi.....		39
2.2. O'zbekistonda ishchi kuchi taklifi shakllanishining amaldagi holati tahlili.....		52
2.3. O'zbekistonda muvozanat holatlarining dinamik o'zgarishini vaqtli qatorlarga asosan kuzatish.....		58
2-bob bo'yicha xulosalar.....		67
ISHCHI KUCHI TALABI VA TAKLIFI O'RTASIDAGI MUVOZANATGA ERISHISH YUZASIDAN KELAJAKDAGI KUTILMALLAR.....		69
3.1. Muvozanat holatiga yaqinlashishda muvaffaqiyatlari mamlakatlar tajribasi.....		69
3.2. O'zbekiston ishchi kuchi bozorida taklif hamda talab tomonlarining dinamikasini modellashtirish.....		75
3.3. O'zbekistonda ishchi kuchi bozorining muvozanat ko'rsatkichlarini prognozlash.....		96
3-bob bo'yicha xulosalar.....		119
XULOSA.....		120
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....		122
ILOVALAR.....		130

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida mehnat bozoriga, ayniqsa ushbu bozordagi taklif hamda talabni muvozanatlashtirishga bo‘lgan tabiiy zaruriyat ortib bormoqda. Muvozanat haddan tashqari ishsizlik va ishchi kuchi tanqisligini minimallashtiradi, ishchilarни tarmoqlar bo‘yicha samarali taqsimotiga ko‘maklashadi, doimiy ish haqi darajasini saqlaydi, ijtimoiy keskinlikni pasaytiradi, aholi turmush darajasini oshiradi va iqtisodiy tengsizlikni kamaytiradi. Jahonda vujudga kelayotgan geosiyosiy hamda geoijtisodiy beqarorliklar sabab ishchi kuchi bozorida talab va taklif o‘rtasidagi muvozanatning buzilish holatlari kuzatilmoqda. Shuningdek, “2023-yilda global ishchi kuchi taklifiga nisbatan bo‘s sh ish o‘rinlarining yetishmaslik darjasini ayollarda (14,5 %) erkaklarga nisbatan (9,8 %) yuqori natijani qayd etdi”¹. Bu esa, o‘z navbatida, ishchi kuchi talabi va taklifi o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash muammosining dolzarb ahamiyat kasb etishini namoyon etmoqda.

Global integratsiya tufayli yuzaga kelgan beqarorlik kuchayib borayotgan bir sharoitda butun dunyoda ishchi kuchi bozorida muvozanatni saqlash masalalariga alohida e’tibor qaratilayotgan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Iqtisodiyotning turli tarmoqlari o‘rtasida mehnat resurslarini samarali taqsimlash, muvozanatning ish haqi darajasiga ta’siri, jamiyatdagi ijtimoiy keskinlikni pasaytirish, turmush darajasini oshirish va iqtisodiy rivojlanish darajasini pasaytirish orqali inson kapitalidan samarali foydalanish, tengsizlik, yetarli miqdordagi malakali ishchi kuchi bilan ta’minlash, innovatsiyalar va texnologik rivojlanishni ta’minlash, investitsiyalarni jalb qilish va eksportni rivojlantirishda moslashuvchan siyosiy choralarni yaratish masalalariga bu boradagi ilmiy tadqiotlarda ustuvorlik berilmoqda.

Yangi O‘zbekistonda barqaror iqtisodiyotni shakllantirish, ish qidiruvchilar va yollovchilarни muvaffaqiyatli birlashtirish va ularning ahvolini yaxshilash masalalariga ahamiyatli e’tibor qaratilmoqda. “O‘zbekiston 2040-yilgacha ijobiy

¹ International Labor Organization “ILO Monitor on the world of work” Eleventh edition, 31 May 2023, 5 p.

demografik dividend yaratadigan juda katta vaqt gorizontiga ega”². Ishchi kuchi resursi soni bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo mintaqasida yetakchilik qilib kelayotgan bo‘lib, ularning iqtisodiyot tarmoqlarida samarali bandligi ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy taraqqiyotda sezilarli ro‘l o‘ynaydi. Shu sababli, ishchi kuchi bozorini talab va taklif o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash

a

s

o

s

i

d

a

r O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son f“2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2017-yil 24-maydagi PF–5052-son “Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2022-yil 30-avgustdagi PQ–366-son “Norasmiy bandlik ulushini qisqartirish hamda mehnat resurslari balansini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 15-martdagi PQ–167-son “Nuroniyarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning turmush darajasini oshirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 7-iyuldaggi 279-son ““20 ming tadbirkor – 500 ming malakali mutaxassis” dasturini amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2022-yil 20-apreldagi 203-son “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning bandligiga ko‘maklashishni rag‘batlantirish bhora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 8-noyabrdagi 650-son “Mahallalarda xotin-qizlarning bandligini ta’minlash va salomatligini mustahkamlash markazlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 22-dekabrdagi 1011-

o

² World Bank Group “Growth and job creation in Uzbekistan: An in-depth diagnostic”, 28 December 2018, 5 p.

1

z

a